

Prezident qarorining mazmun-mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi



So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Yurtboshimiz tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy xujjatlar muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Viloyat hokimligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 23 noyabrdagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining mazmun-mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Viloyat va tuman hokimlari, sektor rahbarlari va boshqa mutasaddilar ishtirok etgan seminarda Bosh vazir o'rinbosari Shuhrat G'aniev mazkur qaror ijrosini ta'minlash uchun e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar to'g'risida tushunchalar berdi.

Shuningdek, viloyat hokimi To'ra Bobolov qarorning muhim jihatlariga e'tiborni qaratdi. Aytish joizki, Prezidentimizning ushbu oqilona qarorining ijrosi viloyatimizda ishsizlikni oldini olish, aholi daromadini oshirish, ya'ni, xalqni rozi qilish borasidagi harakatlarimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorga asosan viloyatimiz bo'yicha 2022 yilda 5 847 gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq elektron tanlov orqali berish rejalashtirilgan. 2025 yilga qadar esa, 14 620 gektar yer maydoni shu maqsadlar uchun ajratish maqsad qilingan. Ayni damda ushbu yerlarni fuqarolarga har tomonlama qulay bo'lgan hududlardan ajratish bo'yicha muhokamalar o'tkazilmoqda. Tanlov g'oliblari o'zlariga ajratilgan maydonlarda 10 yilgacha ijara asosida sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshiradilar.

Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga atroflicha javob oldilar.